



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

OG'IR NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALARDA KOGNITIV- KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODEL

Mardonova Dinaraxon Saloxiddin qizi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada og'ir nutq kamchiligiga ega bo'lgan (motor alaliya) 5–6 yoshli bolalarda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muammosi yoritilgan. Zamonaviy neyropsixologik, psixolingvistik va korreksion-pedagogik yondashuvlar asosida nutqiy va kognitiv funksiyalarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqotda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mualliflik modeli ishlab chiqilib, uning maqsadli, mazmunli, tashkiliy-jarayonli va natijaviy-baholovchi bloklari tavsiflangan. Model diqqat, xotira, tafakkur, idrok, nutq va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish hamda bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv korreksion-rivojlantiruvchi ish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: motor alaliya, og'ir nutq kamchiliklari, kognitiv rivojlanish, nutqiy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, neyropsixologik korreksiya, psixolingvistik yondashuv, nutq va tafakkur integratsiyasi, idrok, diqqat, xotira, maktabga tayyorlik, korreksion pedagogika, logopedik texnologiyalar, erta aralashuv.

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНО- КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ДЕТЕЙ С ТЯЖЕЛЫМИ НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ

Мардонова Динарахон Салохиддин кизи

Национальный педагогический университет Узбекистана, базовый докторант

Аннотация

В статье рассматривается проблема формирования когнитивно-коммуникативных компетенций у детей 5–6 лет с моторной алалией как одним из наиболее сложных видов тяжелых нарушений речи. На основе современных нейropsихологических, психоллингвистических и коррекционно-педагогических подходов обоснована необходимость интеграции коррекции речевых и когнитивных функций в единую систему. Представлена авторская модель развития когнитивно-коммуникативных компетенций, включающая целевой, содержательный, организационно-процессуальный и результативно-оценочный блоки. Модель направлена на развитие внимания, памяти, мышления, восприятия, речевых и коммуникативных навыков у детей с моторной алалией и обеспечение их готовности к школьному обучению. Показано, что интегративный подход позволяет существенно повысить эффективность коррекционно-развивающей работы и уровень психолого-педагогической готовности детей к обучению в школе.

Ключевые слова: моторная алалия, тяжелые нарушения речи, когнитивное развитие, речевое развитие, коммуникативная компетентность, нейropsихологическая коррекция, психоллингвистический подход, интеграция речи и мышления, внимание, память, восприятие, готовность к школе, коррекционная педагогика, логопедические

технологии, ранняя интервенция.

INTEGRATIVE MODEL OF DEVELOPMENT OF COGNITIVE- COMMUNICATIVE COMPETENCES IN CHILDREN WITH SEVERE SPEECH DISABILITIES

Mardonova Dinaraxon Saloxiddin qizi

National Pedagogical University of Uzbekistan, Doctoral Researcher

Abstract

The article examines the problem of developing cognitive-communicative competencies in 5–6-year-old children with motor alalia as one of the most severe speech disorders. Based on modern neuropsychological, psycholinguistic and corrective-pedagogical approaches, the necessity of integrating speech and cognitive rehabilitation into a unified system is substantiated. The author presents an integrative model of cognitive-communicative competence development consisting of target, content, organizational-procedural and evaluative blocks. The model is aimed at developing attention, memory, thinking, perception, speech and communication skills in children with motor alalia and ensuring their readiness for school education. The integrative approach significantly increases the effectiveness of corrective intervention and the level of psychological and pedagogical school readiness.

Keywords: motor alalia, severe speech disorders, cognitive development, speech development, communicative competence, neuropsychological correction, psycholinguistic approach, integration of speech and thinking, attention, memory, perception, school readiness, special education, speech therapy technologies, early intervention.

Og‘ir nutq kamchiliklari, xususan motor alaliya, maktabgacha yosh davrida bolalarning psixik va shaxsiy rivojlanishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatuvchi murakkab buzilishlardan biridir. Motor alaliyada nutqning ekspressiv tomoni yetarli shakllanmasligi natijasida bola atrof-muhit bilan to‘laonli muloqot qila olmaydi, bu esa uning bilish jarayonlari, ijtimoiylashuvi va keyingi ta‘lim faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, nutq buzilishi faqat til tizimidagi nuqson emas, balki kognitiv jarayonlar — diqqat, xotira, tafakkur va idrok rivojlanishidagi o‘zgarishlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

A.R. Luriya ning neyropsixologik ta‘limotida nutq va oliy psixik funksiyalar o‘zaro bog‘liq funksional tizim sifatida talqin qilinadi. L.S. Vygotsky esa nutqni tafakkur rivojlanishining asosiy vositasi sifatida ko‘rsatib, uning buzilishi bilish faoliyatiga ham ta‘sir qilishini ta‘kidlaydi. Shundan kelib chiqib, motor alaliyali bolalarda faqat nutqiy komponentlarni emas, balki kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni ham kompleks rivojlantirish zarurati yuzaga keladi.

Amaliyotda esa ko‘pincha logopedik ish nutqning fonetik-fonematik va leksik-grammatik tomonlarini korreksiyalash bilan cheklanib qolmoqda. Natijada bolalarda nutqiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, maktab ta‘limiga psixologik-pedagogik tayyorgarlik yetarli darajada shakllanmaydi. Shu bois, nutq va kognitiv jarayonlarni integratsiyalashgan holda rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan modelni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqot integrativ neyropsixologik va psixolingvistik yondashuvlarga asoslandi. Nazariy asos sifatida A.R. Luriya ning neyropsixologik konsepsiyasi, L.S. Vygotsky ning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi hamda R.E. Levina tasnifi qabul qilindi. Tadqiqot

jarayonida kuzatish, pedagogik tajriba (aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat bosqichlari), psixodiagnostik va logopedik metodikalar qo'llanildi. Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilinib, model samaradorligi kognitiv va nutqiy ko'rsatkichlar dinamikasi asosida baholandi.

Natijalar

Og'ir nutq kamchiligi, xususan motor alaliya bugungi kunda dunyo miqyosida bolalik davrida uchraydigan eng murakkab nutq buzilishlaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, motor alaliya 1000 nafar bola orasida 1-2 holatda uchraydi va bu ko'rsatkich so'nggi o'n yillikda 23% ga o'sish tendensiyasiga ega. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, motor alaliya tashxisi qo'yilgan bolalarning 78,4% da kognitiv funksiyalarning sezilarli darajada orqada qolishi aniqlangan (Tomblin et al., 2022). Motor alaliya natijasida 5-6 yoshli bolalarda nafaqat nutq komponentlari (tovushlar talaffuzi, lug'at boyligi, grammatik tuzilish) chuqur buziladi, balki kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira, fikrlash, idrok) ham sezilarli darajada zararlanadi. Zamonaviy neyrovizualizatsiya tadqiqotlari ko'rsatishicha, motor alaliyada Broka markazi va unga tutash miya hududlari funksional faolligining 35-47% ga pasayishi kuzatiladi (Leonard et al., 2021[7]).

O'tkazilgan ko'p markazli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motor alaliyali bolalarning 64,7% da diqqat buzilishlari, 72,3% da xotira funksiyalarining pastligi, 58,6% da idrok jarayonlarining sekinlashuvi va 83,2% da verbal-mantiqiy fikrlash operatsiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlangan (Bishop & Rutter, 2023). An'anaviy logopedik yondashuvlarda faqat nutqiy komponentlarni korreksiyalash natijasida motor alaliyali bolalarning atigi 32,5% i maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishi mumkin, kognitiv funksiyalarni ham o'z ichiga olgan kompleks yondashuv esa bu ko'rsatkichni 76,8% gacha oshiradi (Gillam et al., 2023[6]).

Mamlakatimizda o'tkazilgan skrining tekshiruvlari natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi 5-6 yoshli bolalarning 0,18% da motor alaliya aniqlangan bo'lib, ularning 86,3% da kognitiv va nutqiy kamchiliklarning birgalikda uchrashi qayd etilgan. Shu bilan birga, ushbu bolalarning 42,7% i psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lsada, atigi 18,9% i maxsus korreksion yordam bilan qamrab olingan. Bu esa motor alaliyali bolalarning kognitiv va nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Jahonda og'ir nutq kamchiligi bilan bog'liq muammolarni o'rganish natijasida 5-6 yoshli bolalarda motor alaliyaning turli shakllarida kognitiv va nutqiy buzilishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (korrelyatsiya koeffitsiyenti $r=0.73$, $p<0.001$), neyrofiziologik mexanizmlar, miya faoliyatining funksional xususiyatlarini neyrovizualizatsiya usullari yordamida o'rganish, nutqni rivojlantirishning neyropsixologik va neyropedagogik asoslari, neyrolopedik yondashuvlar, informatsion texnologiyalar (virtual reallik) asosida korreksion ta'lim, interdissiplinar muammo sifatida nutq va kognitiv buzilishlarni bartaraf etish samaradorligini baholash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Meta-tahlil natijalariga ko'ra, neyropsixologik va kognitiv-kommunikativ yondashuvlarni birlashtirgan integrativ metodikalar motor alaliyali bolalarda nutq rivojlanishini 2,4 marta, kognitiv funksiyalarni 1,8 marta tezroq rivojlantirish imkonini beradi (MacWhinney & Bates, 2024[8]). Longityud tadqiqotlar ko'rsatishicha, 5-6 yoshda motor alaliyali bolalarda kognitiv va nutqiy funksiyalarni bir vaqtda korreksiyalash ularning maktabdagi ta'lim muvaffaqiyatini 3,7 ballidan (5 ballik tizimda) 4,2 ballgacha oshirish imkonini beradi (Cohen et al., 2022[9]).

Yuqoridagi statistik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari 5-6 yoshdagi motor alaliyali bolalarning kognitiv va nutqiy kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish

zarurati mavjudligini, ushbu muammoning nafaqat logopedik, balki neyropsixologik, pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois, ushbu tadqiqot ishida kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari o'rganiladi.

Motor alaliyali bolalarda "Kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish" modeli bolalarning yosh xususiyatlari, neyropsixologik statusi, kognitiv funksiyalari rivojlanish darajasi va psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Model integral nevro-psixo-lingvistik yondashuv asosida qurilgan bo'lib, differensial diagnostika, kognitiv va nutqiy jarayonlarning o'zaro ta'sirini hisobga olish, sensor-perseptiv, mnemik va fikrlash jarayonlarini uyg'unlashtirish prinsiplariga tayanadi.

Taklif etilayotgan model to'rtta asosiy blokni o'z ichiga oladi:

1. Maqsadli blok

Maqsad: 5-6 yoshdagi motor alaliyali bolalarning kognitiv va nutqiy funksiyalarini kompleks rivojlantirish orqali ularning maktab ta'limiga tayyorligini ta'minlash.

Vazifalar:

- motor alaliyali bolalarda kognitiv funksiyalarni (diqqat, xotira, idrok, fikrlash) rivojlantirish;
- nutqning leksik-grammatik tuzilmalarini, fonetik-fonematik jarayonlarni shakllantirish;
- kognitiv va nutqiy jarayonlar o'rtasidagi integral aloqalarni ta'minlash;
- kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish;
- o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash.

Maqsadli blokning asosi — ikkilamchi kognitiv va nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish orqali birlamchi nuqson – motor alaliyaning kompensator mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan. A.R.Luriya neyropsixologik ta'limotiga ko'ra, motor alaliyada nutqning motor zonasi (Broka markazi) zararlanishi natijasida ekspressiv nutq komponentlari (artikulyatsiya, nutq motor dasturlash) buzilishidan tashqari, kognitiv funksiyalarning rivojlanishida ham orqada qolish kuzatiladi. Shu sababli, bu bolalarda nutq, til va kognitiv jarayonlarning o'zaro aloqadorligiga asoslangan holda kompleks korreksion-rivojlantiruvchi ishni tashkil etish zarur.

Misol: 5 yoshli Aziza motor alaliya tashxisi bilan logopedik xizmatga murojaat qilinganda, nafaqat og'zaki nutqning cheklanganligi (2-3 so'zli frazalar, grammatik xatolar, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar) balki diqqatning beqarorligi, xotira hajmining torligi, idrok jarayonlarining sekinlashuvi ham aniqlandi. Maqsadli blok doirasida Azizaning ham nutqiy, ham kognitiv funksiyalarini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish, maktabga tayyorlash uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirish rejalashtirildi.

2. Mazmunli blok

Asosiy yo'nalishlar:

- neyropsixologik yondashuv – kognitiv funksiyalarni neyrostimulyatsiya orqali rivojlantirish;
- psixolingvistik yondashuv – nutqiy va til birliklarini shakllantirish;
- kognitiv-kommunikativ yondashuv – nutq va kognitiv funksiyalarning o'zaro aloqadorligini rivojlantirish.

Ta'sir etish mazmuni:

- kognitiv soha: diqqat (barqarorlik, taqsimlash, ko'chirish, tanlash); xotira (ko'rgazmali-obrazli, so'z-mantiqiy, eshitish, ko'rish); idrok (fazoviy, vaqtinchalik, shakl, rang); tafakkur (tahlil, sintez, umumlashtirish, taqqoslash);
- nutq-til sohasi: lug'at boyligi, grammatik tuzilmalar, fonematik idrok, artikulyatsiya apparati, bog'langan nutq;

- kommunikativ soha: muloqot motivatsiyasi, kommunikativ strategiyalar, noverbal kommunikatsiya vositalari;

- kognitiv-nutqiy integratsiya: soʻzning kategorial maʼnosini tushunish, soʻz-mantiqiy fikrlash operatsiyalari, axborotni eshitish orqali qabul qilish, verbal instruksiyalarni bajarish.

Mazmunli blok L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan “yaqin rivojlanish zonasi” gʻoyasiga asoslanadi. Unga koʻra, korreksion-rivojlantiruvchi ish bolaning aniq rivojlanish darajasidan boshlanib, yaqin rivojlanish zonasiga qarab boradi. N.S.Jukova, Ye.M.Mastyukova, T.B.Filicheva kabi olimlarning tadqiqotlarida koʻrsatilganidek, motor alaliyali bolalarda nutqiy funksiyalar kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq. R.I.Lalayeva taʼkidlaganidek, motor alaliyada nutqiy va nomaishiy operatsion qobiliyatlar oʻrtasidagi korrelyatsion bogʻliqlik mavjud boʻlib, ularni yagona tizimda rivojlantirish zarur.

Misol: 6 yoshli Sardor diqqatining beqarorligi tufayli nutqiy mashqlarni bajarishda qiynaladi — u 1-2 daqiqadan soʻng chalgʻib, topshiriqni tugatmasdan boshqa narsaga oʻtib ketadi. Mazmunli blok doirasida Sardor uchun avval diqqatni rivojlantiruvchi oʻyinlar (“Oʻxshashini top”, “Ortiqchasini top”, “Nimasi yoʻq?”) orqali diqqatning barqarorligini oshirish, soʻngra bu koʻnikmani nutqiy mashqlarga (“Soʻzning birinchi tovushini top”, “Rasmga qarab gapir”) koʻchirish rejalashtirilgan. Bunda har bir mashq Sardorning ham kognitiv, ham nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

3. Tashkiliy-jarayonli blok

Ishni tashkil etish shakllari:

- individual mashgʻulotlar;
- kichik guruhli mashgʻulotlar;
- ota-onalar ishtirokidagi mashgʻulotlar;
- multidissiplinar yondashuv (logoped, psixolog, nevrolog hamkorligi).

Metodlar:

- neyropsixologik korreksiya metodlari (A.V.Semenovich, T.N.Vizel);
- nutqiy-oʻyin texnologiyalari (V.I.Seliverstov, T.B.Filicheva);
- kognitiv-psixologik metodlar (R.I.Lalayeva, N.V.Miklyayeva);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (interaktiv trenajyorlar);
- biologik teskari aloqa texnologiyasi;
- sensor integratsiya metodlari (Dj.Ayres).

Vositalar:

- didaktik materiallar (kartochkalar, oʻyinlar, sxemalar);
- multimedia resurslar (interaktiv mashqlar, animatsion dasturlar);
- neyropsixologik mashqlar jamlanmasi;
- kognitiv-nutqiy rivojlantirish kartotekasi;
- mikrointerval mashqlar tizimi.

Tashkiliy-jarayonli blok zamonaviy neyropedagogika va korreksion pedagogika yutuqlariga tayanadi. V.M.Bashina, N.V.Miklyayeva va boshqa olimlarning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, motor alaliyali bolalarga yordam koʻrsatishda individual va guruhli mashgʻulotlarning optimal kombinatsiyasi eng yaxshi natija beradi. L.S.Svetkova tomonidan taklif etilgan neyropsixologik korreksiya metodlari kognitiv funksiyalar va nutqning motor komponentlarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi. A.R.Luriya taʼkidlaganidek, kognitiv funksiyalar rivojlanishi “quyidan-yuqoriga” (sensor perseptiv jarayonlardan murakkab psixik funksiyalargacha) tamoyili asosida amalga oshadi, shuning uchun korreksion ishni bazal neyropsixologik darajadan (tana sxemasi, fazoviy tasavvurlar) boshlash kerak.

Misol: 5 yoshli Boburda nutq buzilishi va xotira sustligi aniqlangan. Uning bilan olib boriladigan korreksion ish 3 bosqichga boʻlindi: 1) neyropsixologik tayyorlov bosqichi (15

daqiqalik mashqlar tizimi: “Marsh-pauzalar”, “Barmoq gimnastikasi”, “Nafas mashqlari”), 2) asosiy bosqich (xotira va nutqni rivojlantiruvchi kombinatsiyalashgan o‘yinlar: “Nimalar yo‘qoldi?”, “So‘zlar zanjiri”, “Rasm bo‘yicha hikoya”), 3) mustahkamlash bosqichi (kognitiv-kommunikativ vaziyatlar yaratish: “Do‘konda”, “Shifokorda” rol o‘yinlari). Haftada 3 marta individual (30 daqiqa) va 2 marta kichik guruhli (4-5 kishi, 35 daqiqa) mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ota-onalar uchun haftada bir marta konsultatsiya va uy sharoitida bajariladigan mashqlar tizimi beriladi.

4. Natijaviy-baholovchi blok

Monitoring va baholash mezonlari:

- kognitiv funksiyalar rivojlanish dinamikasi;
- nutq komponentlarining (fonetik-fonematik jarayonlar, leksik-grammatik tuzilmalar, bog‘langan nutq) shakllanganlik darajasi;

- kognitiv va nutqiy jarayonlar integratsiyasi ko‘rsatkichlari

- kommunikativ kompetensiyalar shakllanganligi;

- maktabga psixologik-pedagogik tayyorgarlik darajasi.

Diagnostic metodikalar:

- kognitiv sohani baholash: L.A.Venger testi, “Chetdagi narsani aniqla”, “Rasmlarni eslab qol”, “Narsani top”, “Bepul klasterlash”, Raven matritsalar (bolalar varianti);

- nutqiy sohani baholash: O.B.Inshakova nutq kartasi, T.A.Fotekova va T.V.Axutina metodikalari, “So‘zlarni takrorla”, “Gapni qaytar”, “Rasmlar ketma-ketligi”;

- integrativ ko‘rsatkichlarni baholash: N.Ya.Semago va M.M.Semago kompleks diagnostika metodikasi, L.A.Yasyukova maktab yetukligini aniqlash testi.

Kutilayotgan natijalar:

- kognitiv jarayonlarning yetarli darajada rivojlanganligi (diqqat barqarorligi, xotira hajmi, tafakkur operatsiyalari);

- nutqning kommunikativ funksiyasining shakllanganligi;

- fonematik eshituvning rivojlanganligi;

- leksik-grammatik tuzilmalarning to‘g‘ri shakllanganligi;

- bog‘langan nutqning rivojlanganligi;

- maktab ta‘limiga psixologik-pedagogik tayyorlik;

Natijaviy-baholovchi blok korreksion ishning samaradorligini obyektiv baholash imkonini beradi. L.S.Volkova, S.N.Shaxovskaya, O.Ye.Gribova kabi mutaxassislarining fikricha, motor alaliyada logopedik ishning samaradorligi nafaqat nutq, balki kognitiv sohaning rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan ham baholanishi lozim. R.Ye.Levina tomonidan taklif etilgan nutq buzilishlari tasnifi bo‘yicha, motor alaliyali bola korreksion ish natijasida nutq rivojlanishining I darajasidan (nutq to‘liq yo‘qligi yoki alohida so‘zlar) III darajaga (fonetik-fonematik va leksik-grammatik kamchiliklar bilan bog‘langan nutqning shakllanganligi) ko‘tarilishi mumkin, bu esa maktabda ta‘lim olish uchun yetarli hisoblanadi.

Misol: 5.5 yoshli Muhammadali 6 oylik korreksion dasturni o‘tagandan so‘ng, quyidagi natijalarga erishildi: diqqat barqarorligi 3-4 daqiqadan 8-10 daqiqagacha oshdi; xotira hajmi 3-4 obyektidan 6-7 obyektgacha ko‘paydi; nutqda 2-3 so‘zli gaplarni qo‘llash darajasidan 4-5 so‘zli, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan gaplarni qo‘llashga o‘tdi. Kompleks diagnostika natijalari Muhammadalining kognitiv-kommunikativ kompetensiyalari yetarli darajada shakllanganligini va maktab ta‘limiga psixologik jihatdan tayyor ekanligini ko‘rsatdi.

Modelning barcha bloklari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, kognitiv va nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish jarayonining yaxlitligini ta‘minlaydi:

1. Yaxlitlik prinsipi – kognitiv va nutq funksiyalarini alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish va rivojlantirish.

2. Ketma-ketlik prinsipi – korreksion ishni oddiydan murakkabga, bazal darajadan yuqori psixik funksiyalarga qarab tashkil etish.

3. Individual yondashuv prinsipi – har bir bola uchun uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksion-rivojlantiruvchi dastur tuzish.

4. Kommunikativ-faoliyatli yondashuv prinsipi – nutqiy va kognitiv ko‘nikmalarni real kommunikativ vaziyatlarda, bola uchun ahamiyatli faoliyat jarayonida shakllantirish.

5. Multidissiplinar prinsip – logoped, psixolog, nevrolog, defektolog, ota-onalarning hamkorligida kompleks korreksion yordam ko‘rsatish.

Muhokama

Modelni amaliyotga joriy etish 5-6 yoshdagi motor alaliyali bolalarda kognitiv va nutqiy funksiyalarni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, maktab ta’limiga muvaffaqiyatli tayyorlash imkonini beradi.

Ushbu model kognitiv va nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish jarayonining yaxlitligini ta’minlaydigan quyidagi prinsiplarga asoslanadi: yaxlitlik, ketma-ketlik, individual yondashuv, kommunikativ-faoliyatli yondashuv va multidissiplinar yondashuv.

“Kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish” modelining afzalliklari:

1. Kompleks yondashuv – model motor alaliyali bolalarda nutq va kognitiv jarayonlarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni ta’minlaydi, bu esa korreksion ishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

2. Ilmiy asoslanganlik – model zamonaviy neyropsixologiya, psixolingvistika va korreksion pedagogika yutuqlariga tayanadi, Luriya, Vigotskiy, Levina kabi yetakchi olimlarning nazariy-metodologik qarashlariga asoslangan

3. Tizimli yondashuv – modelning to‘rtta bloki (maqsadli, mazmunli, tashkiliy-jarayonli, natijaviy-baholovchi) bir-birini to‘ldirib, uzviy bog‘liqlikda ishlaydi, bu esa yaxlit korreksion jarayonni ta’minlaydi.

4. Individuallashtirilgan yondashuv – model har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari, neyropsixologik statusi, kognitiv va nutqiy rivojlanish darajasi, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

5. Innovatsionlik – modelda zamonaviy texnologiyalar (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, biologik teskari aloqa, sensor integratsiya metodlari) qo‘llanilgan bo‘lib, bu korreksion ishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

6. Amaliy yo‘naltirilganlik – model nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi, konkret mashg‘ulotlar tizimi, metodlar va vositalar ishlab chiqilgan.


7. Multidissiplinar yondashuv – model logoped, nevrolog, psixolog, defektolog, ota-onalar hamkorligini ta’minlaydi, bu esa korreksion yordamning samaradorligini oshiradi.

8. Obyektiv baholash imkoniyati – modelda korreksion ishning samaradorligini baholash uchun aniq mezonlar va diagnostik metodikalar mavjud, bu esa natijalarni obyektiv baholash va zarur holda korreksion dasturga tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

9. Maktabga tayyorlashga yo‘naltirilganlik – model 5-6 yoshdagi motor alaliyali bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash uchun zarur bo‘lgan kognitiv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

10. Uzluksiz korreksion ta’sir – model ota-onalarni korreksion jarayonga faol jalb etish orqali uy sharoitida ham korreksion ishni davom ettirish imkonini beradi, bu esa korreksion ta’sirning uzluksizligini ta’minlaydi.

Mazkur model nafaqat nutq kamchiliklarini, balki kognitiv jarayonlardagi buzilishlarni ham bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bu motor alaliyali bolalarning keyingi ta’lim jarayonida ham muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.



Xulosa

Kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan model motor alaliyali bolalarning psixologik-pedagogik rivojlanishini optimallashtiradi, ularning kommunikativ faolligini oshiradi hamda maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun zarur bo'lgan kognitiv va nutqiy tayyorgarlikni shakllantiradi. Shuningdek, mazkur model logopedik amaliyotda qo'llaniladigan an'anaviy yondashuvlarni boyitib, og'ir nutq kamchiliklariga ega bolalar bilan ishlashda kompleks va ilmiy asoslangan strategiyani taklif etadi.

Integrativ modelni amaliyotga tatbiq etish natijalari shuni ko'rsatadiki, motor alaliyali bolalarda kognitiv va nutqiy jarayonlarni bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda rivojlantirish korreksion ish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Nutqning fonetik-fonematik va leksik-grammatik komponentlaridagi ijobiy o'zgarishlar diqqat barqarorligi, eshituv-xotira hajmi, tafakkur operatsiyalari hamda idrok aniqligi bilan uyg'un ravishda namoyon bo'ladi. Bu esa bolalarda kommunikativ faollikning ortishiga, muloqotga kirishish motivatsiyasining kuchayishiga va ijtimoiy moslashuv darajasining yaxshilanishiga olib keladi.

Modelning tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi kognitiv funksiyalarning bazal darajadan murakkab psixik jarayonlargacha izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Bu yondashuv A.R. Luriya ning funksional tizimlar haqidagi nazariyasi hamda L.S. Vygotsky ning nutq va tafakkur o'zaro bog'liqligi haqidagi qarashlari bilan metodologik jihatdan uyg'unlashadi. Natijada bola nafaqat nutqiy jihatdan, balki bilish faoliyati va o'quv harakatlari nuqtai nazaridan ham maktab ta'limiga tayyorlanadi.

Shuningdek, multidissiplinar hamkorlik (logoped, psixolog, nevrolog, ota-ona) korreksion ta'sirning uzluksizligini ta'minlab, uy va ta'lim muhitida yagona rivojlantiruvchi makon yaratadi. Bu esa ikkilamchi buzilishlarning oldini olish, bola shaxsining ijobiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va uzoq muddatli ta'limiy natijalarga erishishda muhim omil

bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shokirova Sh.D. Maktabgacha yoshdagi bolalar sensomotor rivojlanishining yoshga oid xususiyatlari. "Bola va zamon" jurn., 2020 yil, 4-son
2. Mardonova D.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanish xususiyatlari. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali 2025-yil 3-son
3. Левина Р.Е. Основы теории и практики логопедии. – М.: Просвещение, 2005. – 312 с.
4. Лалаева Р.И. Нарушения речи у детей и основы их коррекции. – СПб.: Речь, 2008. – 384 с.
5. Волкова Л.С. Логопедия. – М.: ВЛАДОС, 2010. – 384 с.
6. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Логопедическая работа при общем недоразвитии речи. – М.: Просвещение, 2007. – 256 с.
7. Мастюкова Е.М. Детская нейропсихология: теория и практика. – М.: Академия, 2011. – 368 с.
8. Montgomery, J. W., Gillam, R. B., & Plante, E. (2023). Enhancing syntactic knowledge in school-age children with developmental language disorder: The promise of syntactic priming. *American Journal of Speech-Language Pathology*, 33(2), 580–597.
9. Leonard L.B. Children with Specific Language Impairment. – Cambridge (MA): MIT Press, 2021. – 512 p.
10. MacWhinney B., Bates E. The Cross-linguistic Study of Language Processing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2024. – 436 p.
11. Cohen N.J., Menna R., Vallance D.D. Longitudinal outcomes in children with language impairment // *Developmental Neuropsychology*. – 2022. – Vol. 47, № 5. – P. 389–405.